


A.A. ABDUQODIROV, G.U. UMAROVA

**BOSHLANG'ICH
TA'LIMDA INFORMATIKA
ELEMENTLARINI
O'QITISH METODIKASI**



TOSHKENT

A.A.ABDUQODIROV, G.U.UMAROVA

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA
INFORMATIKA ELEMENTLARINI
O‘QITISH METODIKASI**

(Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma)

TOHKEHT – 2016

UO‘K: 372.800.4 (072)

KBK 74.263.2

A-15

A-15

A.A.Abduqodirov, G.U.Umarova. Boshlang‘ich sinflarda informatika elementlarini o‘qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 72 bet.

ISBN 978–9943–11–390–9

Ushbu qo‘llanma boshlang‘ich ta‘lim va sport, tarbiyaviy ish yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavr talabalari va magistrantlar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogika kollejlarning shu yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda informatika fanining boshlang‘ich tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ular ustida ishlash metodikasi yoritilgan, shuningdek, boshlang‘ich sinflar mashg‘ulotlarida qo‘llanish mumkin bo‘lgan ba‘zi innovatsion texnologiyalardan foydalanish tartiblari bayon qilingan.

UO‘K: 372.800.4 (072)

KBK 74.263.2

Mas‘ul muharrir:

A.A.Abduqodirov – ped.fan.dok., professor

Taqrizchilar:

B.Abdullayeva – ped.fan.dok., professor;

S.Tursunov – ped.fan.nomzodi, dostent;

N.Axmedova – RTM boshlang‘ich ta‘lim bo‘lim boshlig‘i.

Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo‘mitasi tomonidan 2015-2017-yillarga mo‘ljallab “Ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning sifat va samaradorligini oshirishda “Case-study” uslubidan foydalanish” mavzusi uchun ajratilgan grant mablag‘i doirasida tayyorlandi va chop etildi.

Qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU «Boshlang‘ich ta‘lim va jismoniy madaniyat» fakulteti Kengashining qarori (28-oktabr 2016-yildagi 3-sonli bayonnomasi) bilan nashr etildi.

ISBN 978–9943–11–390–9

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o‘qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish bugungi kunning talabiga aylanmoqda.

Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar tufayli, zamonaviy dinamik sharoitlarda samarali ijodiy ishlarni amalga oshira oladigan pedagog kadrlar tayyorlashga alohida talablar qo‘yilmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standartlarining takomillashtirilishi, unga axborot va pedagogik texnologiyalari elementlarining kiritilishi, shuningdek, dars mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda o‘qituvchidan yuqori salohiyat, jahon talablariga javob beradigan bilim hamda bugungi kun talabiga javob beradigan har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorgarligiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi bilan birgalikda axborot texnologiyalarini ham puxta bilishi, o‘z faoliyatida keng foydalanishi zarurligini zamon talab etmoqda. Shunday ekan, hozirgi davr talablariga javob bera oladigan chuqur bilimli, malakali, o‘z kasbiga mehr qo‘ygan, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan dars jarayonlarida foydalana oladigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlash muhim vazifalardan biri sanaladi.

Boshlang‘ich sinflarda joriy etiladigan pedagogik va axborot texnologiyalari, avvalo, fanlar orasidagi aloqadorlikni ta’minlash bilan bir qatorda o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri izga solish, vaqtdan unumli foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari

vaqtlarda bolalar orasida tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, erkin fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bu ishlarni amalga oshiruvchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish dasturi va rejasini qayta ko‘rib chiqib, zamonaviy bilim berish va ularda amaliy tayyorgarlik malakalarini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv soatlari hajmini oshirish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda faqat nazariy bilim emas, balki o‘rganilgan nazariy bilimlarni amalda sinab ko‘rish orqali amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratish lozim. Shuning uchun boshlang‘ich maktablarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish bilan bevosita aloqada bo‘lgan informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash masalasi bugungi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Shuni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan edilar: «Eski ta’lim tizimining eng yomon qusuri boshlang‘ich ta’limga ikkinchi darajali ish deya qarayotganimizdadir. Vaholangki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar birkiritib qo‘yilishini oddiy mantiqning o‘zi talab etadi».

Darhaqiqat, hozirgi zamon umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari jamiyatda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarni mushohada qila oladigan, har bir masalaga o‘z munosabatini bildiradigan, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo‘lishi kerak.

Shunday ekan boshlang‘ich sinflarda dars beruvchi o‘qituvchilar yangi pedagogik va axborot texnologiyalari haqida nazariy-amaliy tushunchalarga ega bo‘lishlari kerak.

1-4-sinflarda joriy etiladigan pedagogik va axborot texnologiyalari, avvalo, fanlar orasidagi bog‘liqlikni ta’minlash va bu orqali bolalarni ortiqcha qiyinchiliklardan ozod etish, o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri izga solish, vaqtdan unumli

foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda bolalar orasida tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, erkin fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

1-4-sinflardagi informatika faniga aloqador ta'lim sohasi asosan propedevtik bosqich vazifasini o'tamoqda, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuter haqidagi oddiy ma'lumotni, jumladan, informatikaning boshlang'ich elementlari haqidagi materallarni o'rganadilar.

Ma'lumki, axborot, algoritm kabi tushunchalar informatika fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematika darslarida misol va masalalarni yoki mantiqiy topshiriqlarni yechish jarayonida axborot, algoritmgacha xos tushunchani bilib-bilmasdan qo'llaydilar. O'qituvchi bu tushunchalar mohiyatini o'quvchilarga tushuntirib berishi va amalda qo'llashi uchun quyidagilarni bilishi kerak:

1. Axborot o'rganilayotgan narsa yoki hodisani har taraflama to'liq ifodalashi, ya'ni axborot to'liqlik sifatiga ega bo'lishi.

2. Axborot ma'lum ma'noda qimmatli bo'lishi va aks holda undan foydalanish ehtiyoji tug'ilmasligi.

3. Axborot ishonchli bo'lishi aks holda uni qayta ishlashga zarurat tug'ilmasligi.

Agar axborot (informatsiya) so'zi lotincha «information» ya'ni «tushuntirish», «tavsiflash» degan ma'noni anglatishiga e'tibor bersak, insoniyat taraqqiyotining asosini axborotni biror maqsadga ko'ra ishlab chiqish, undan foydalanish va hozirgi vaqtda hayotimizda muhim o'rin egallaydigan tushuncha - axborotni saqlash tashkil etadi. Insonning butun hayoti axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'langan.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rgatishning afzalligi shundaki, u:

– o'quvchilarning darsda faol qatnashishlarini, o'zlashtirish sifatining oshishini;

– boshlang‘ich ta‘lim uchun yaratilgan elektron darsliklar yordamida darslarni qiziqarli tashkil qilishni;

– o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanib borishini;

– darsda o‘quvchilarning informatsion tushunchalarini shakllanishini;

– darsning sifat va samaradorligining oshishini ta‘minlaydi.

Shu bois ham boshlang‘ich ta‘limda informatika kursi quyidagi yo‘nalishda o‘rganilishi afzal hisoblanadi:

1. O‘quvchilarda axborot yoki informatsion jarayonlar to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

2. O‘quvchilar tomonidan kompyuter bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish usullarini o‘zlashtirib borilishi va turli axborot muharrirlari bilan tanishib borishi;

3. Algoritmik yo‘nalish-ijrochi uchun algoritmlarni o‘ylash va yozishni rivojlantirish.

O‘quvchilar 1-2-sinflarda kompyuter bilan o‘zaro munosabat haqidagi umumiy tushunchalarni: asosiy klavishlar, sichqoncha, menyularni o‘zlashtirib, matn terish va xatolarni tuzatishni mashq qiladilar.

Bu ishlarni amalga oshiruvchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda biz informatika va axborot texnologiyalari fani dasturi va rejasini qaytadan ko‘rib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarga eng zamonaviy bilim berish va yaxshi amaliy tayyorgarlikni singdirishga intilmog‘imiz zarur. Bunda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish juda muhimdir.

Mazkur qo‘llanmada informatika fanining boshlang‘ich elementlari ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni yechish metodikasi, boshlang‘ich sinflarda informatika darslarida tatbiq etiladigan masalalar ustida ishlash texnologiyasi masalalari yoritilgan. Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun informatikadan 16 dars mashg‘uloti keltirilgan.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3990> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3990> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3990>